



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## “BOBURNOMA” ASARIDA HISOB SO‘ZLARNING SEMANTIK- FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. SEMANTIC AND FUNCTIONAL FEATURES OF NUMERATIVE WORDS IN BABURNAMA

**Turg‘unboyeva Dilnoza Akmal qizi**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-mail: [dilnozaturgunboeva97@gmail.com](mailto:dilnozaturgunboeva97@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./KCGJ5781](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./KCGJ5781)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri hisoblangan “Boburnoma” asarida qo‘llangan hisob so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tahlilda miqdorni ifodalovchi leksik birliklar – miqdor bildiruvchi so‘zlar, pul, vaqt, og‘irlik, makon hamda ijtimoiy-iqtisodiy birliklar tizimli ravishda o‘rganiladi. Hisob so‘zlarning matndagi funksional vazifalari, ularning voqea-hodisalarni ifodalashdagi roli, shuningdek, tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Tahlil jarayonida hisob so‘zlarning nafaqat miqdoriy axborot yetkazish, balki muallif dunyoqarashi, davr tafakkuri va madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari “Boburnoma” matnida hisob so‘zlarning semantik ko‘lami keng ekanini, ularning nutqiy va uslubiy jihatdan muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** hisob so‘zlar, semantik-funksional tahlil, miqdor kategoriyasi, numerativlar, son so‘z turkumi, vaqt, og‘irlik, uzunlik.

**Annotation:** This article analyzes the semantic and functional characteristics of counting (quantifying) words used in Baburnama, one of the most important historical papers of the Uzbek literary language. The study systematically examines lexical units expressing quantity, including quantifying words, monetary, temporal, weight, spatial, and socio-economic units. The functional roles of counting words in the text, their contribution to the representation of events and phenomena, as well as their connection with historical, cultural, and social contexts are revealed. The analysis demonstrates that counting words serve not only to convey quantitative information but also to reflect the author’s worldview, the intellectual spirit of the period, and cultural values. The results of the study show that in Baburnama, counting words possess a broad semantic scope and function as significant linguistic means in terms of discourse and stylistic expression.

**Keywords:** quantifying lexemes, semantic and functional analysis, category of quantity, numeratives, numeral word class, time, weight, length.



Ma'lumki, kishilar ibtidoiy davrdan boshlab predmetlarning sanog'i, o'lchovi, qiymati kabilarni bilishga ehtiyoj sezganlar. Buning uchun turli xil predmetlar, toshlar, keyinchalik esa qiymati yuqori bo'lgan tilla, kumush yoki boshqa nodir metallardan foydalanganlar. Shu sababdan, mazkur o'lchov so'zlarga doir ko'plab birliklar bir qator olimlarning tarixiy asarlarida qayd etilgan. Buyuk mutafakkir olim, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham tilshunoslik uchun qimmatli ma'lumotlarni jamlagan bo'lib, unda qo'llangan numerativ so'zlarning turlari, ma'nolarining xilma-xilligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunda faqat turkiy xalqlarning o'lchov birliklari emas, balki boshqa millat, xalqning o'lchov birliklari ham qiyoslab tushuntirib berilgan. O'zbek adabiy tilining muhim tarixiy yodgorliklaridan biri bo'lgan “Boburnoma” nafaqat tarixiy-memuar asar sifatida, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli manba hisoblanadi. Asarda uchraydigan hisob so'zlar, ya'ni numerativlar muallif tilining leksik-semantik boyligini, davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy tafakkurini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Numerativlar orqali voqea-hodisalar miqyosi, makon va vaqt ko'lami, iqtisodiy munosabatlar hamda ijtimoiy holat aniq va ta'sirchan ifodalanadi.

“Boburnoma” leksikasi haqida boburshunos olim Z. Xolmanova ” “Boburnoma” da XV - XVI asr eski o'zbek adabiy tilidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy tizim, maishiy hayotga oid leksik birliklar jamlangan. Shuningdek, Afg'oniston, Hindiston tabiati, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, xalqning yashash tarzi, madaniyati, turmush darajasini aks ettiruvchi forscha-tojikcha, hindcha so'zlar o'z ifodasini topgan. Asar faqat mazmuni bilangina emas, o'ziga xos tili, jozibador uslubi bilan ajralib turadi. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi XV-XVI asr eski o'zbek adabiy tili lug'at tarkibi, fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o'rganishda, turkiy til taraqqiyoti, turkiy leksemalar semantikasi, o'zbek tili tarixiy leksikologiyasi, tarixiy dialektologiya masalalarini, Boburning so'z qo'llash mahoratini yoritishda muhim ahamiyatga ega”, deydi [Xolmanova, 2009]. Tilshunoslikda miqdorni ifodalovchi leksemalar ichida son so'z turkumi bilan birga hisob so'zlar ham keng qo'llanadi. Tilshunoslikda hisob so'zlar yoki numerativlar miqdorni ifodalovchi leksik birliklar sifatida talqin qilinib, ular sonlar, o'lchov birliklari va miqdor bildiruvchi so'zlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. “Boburnoma” matnida numerativlar aniq va noaniq miqdorni bildiruvchi turlarga ajraladi. Aniq miqdorni bildiruvchi numerativlar ko'pincha sonlar bilan birikib kelib, real hisobni ifodalaydi: qo'shin soni, yer maydoni, pul miqdori, vaqt davomiyligi va boshqalar. Noaniq miqdorni bildiruvchi numerativlar esa ko'p, bisyor, behisob kabi so'zlar orqali voqelikka baho berish vazifasini bajaradi. Hisob so'zlar sonlar bilan birga kelib ular ifodalayotgan predmet miqdorini aniqlab keladi. Keyingi yillarda hisob so'zlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, leksik-semantik jihatdan guruhlarga bo'lib, klassifikatsiya qilish jadal rivojlandi. Hisob so'zlarni semantik jihatdan tadqiq



etishda S. Nizomiddinova, X. Komilova, U. Tursunov, Sh. Raxmatullayev, P. Hamdamov, S. Usmonov, J. Muxtorov kabilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Hisob so'zlarni ma'nosiga ko'ra I. Rasulov, M. Mirzayevlar yetti guruhga, Sh. Raxmatullayev, U. Tursunov, J. Muhtorov sakkiz guruhga, P. Hamdamov o'n uch guruhga bo'lib o'rganganlar. “Boburnoma” asarida hisob so'zlar juda ko'p ishlatilgan bo'lib, uzunlik o'lchovi va vaqt o'lchovini bildiruvchi so'zlar boshqa turlariga nisbatan tez-tez uchraydi. “Boburnoma”da qo'llangan hisob so'zlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) og'irlik o'lchovini ifodalovchi hisob so'zlar;
- 2) uzunlik o'lchovini ifodalovchi hisob so'zlar;
- 3) vaqt o'lchovini ifodalovchi hisob so'zlar;
- 4) hisob so'zi vazifasini bajaruvchi otlar;
- 5) butunni yoki qismni ifodalovchi hisob so'zlar;
- 6) daraxt yoki o'simliklar miqdorini bildiruvchi hisob so'zlar;
- 7) pul qiymatini ifodalovchi hisob so'zlar;
- 8) sanoq sonlarga sinonimlashgan numerativlar.

Og'irlikni ifodalovchi hisob so'zlardan misqol, botmon, xarvar, mon, monosa, mosha, rati, tuvla (to'vla) kabilar uchraydi. Mazkur hisob so'zlarning miqdor qiymati davrlarga ko'ra aynan bir xil bo'lmay o'zgarib turgan. Xarvar tarixiy manbalarda uchraydigan og'irlik o'lchov birligi bo'lib, asosan, Markaziy Osiyo, Eron va Afg'oniston hududlarida qo'llangan. Xarvar (forscha har – eshak, var – yuk) eshak yukiga teng og'irlik ma'nosini anglatadi. Bu birlik aniq standartga ega bo'lmagan, 1 xarvar – 300, 400 kg yirik og'irlikni bildirgan. Xarvar so'zi ko'pincha iqtisodiy va xo'jalik munosabatlari bilan bog'liq matnlarda uchraydi. Mon (man) oziq-ovqat, savdo-sotiq uchun ishlatilgan og'irlik o'lchovi hisoblanib, 1 mon 3-5 kg ga tenglashtirilgan. Monosa yarim mon ma'nosini bildiradi. Rati hind an'anaviy o'lchov tizimidagi og'irlik birligidir. Rati nisbatan kichik birliklar qiymatini o'lchash uchun ishlatilgan, masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar. Tuvla (to'vla) o'lchov birligi ikki misqolga yaqin qiymatni ifodalagan. “Boburnoma” da juda ko'p uzunlik o'lchovini bildiruvchi so'zlar uchraydi. Bulardan quloch, yig'och, gaz, tanob, qadam, mil, manzil so'zlari qator joy va masofalarni tasvirlash uchun ishlatilgan. Gaz so'zi asarda asosan birikma tarkibida uchraydi. Derlarkim, yig'ochdin-yig'ochga nishebga boqa bir gaz otimi uchar. V. Hindtsning yozishicha, gaz (gez, giyas) forchasiga bilak ma'nosini beradi. Gaz Eronda zar, zera, arash deb atalgan. O'rta asarlarda 1 gaz 62 cm gaz, XYII asrda esa Basrada 94 sm ga teng bo'lgan. Hozirgi davrda gaz o'lchov birligin Eronda bir turi mavjud bo'lib, u 104 sm ga teng. Gaz va zar terminlari O'rta Osiyoda sinonim sifatida qo'llangan. Etnografik ma'lumotlarga qaraganda, xo'jalik ishlarida ko'proq gaz qo'llanilgan. Yuridik hujjatlarda ikkala termin baravar qo'llanilgan. Ammo, gaz zarga qaraganda ko'proq ishlatilgan. O'rta Osiyoda gaz 3 xil bo'lgan. 1. Barmoq uchlaridan yelkaga qadar, barmoq uchidan ko'krak o'rtasigacha (yoki burun to'grisigacha )



bo'lgan masofa, barmoq uchidan ikkinchi yelkagacha. 2. Barmoq qalinligidagi o'lchov bo'lib, bir gaz 24 barmoqqa teng bo'lgan. 3. Musht o'lchoviga asoslangan. Bunda bosh barmoq tik ko'tarilgan holatda bo'ladi. Bunda 1 gaz 7 mushga teng bo'ladi. Ba'zi hollarda faqat yettinchi mushtning barmog'i ko'tarilgan bo'ladi. Xorazmda XIX asrlarda ikki xil gaz mavjud bo'lgan: biri yer maydonini o'lchash uchun va ikkinchisi matolarni o'lchashda qo'llanilgan. Yer maydonini o'lchaydigan gaz 101, 822 sm ga, matolarni o'lchashda qo'llaniladigani esa 58, 184 sm ga teng bo'lgan. Buxoroda XVIII asrda 49, 875 sm ga teng bo'lgan. XVI- XVII asrlarda ko'proq qurilishda gaz 78, 74 sm ga teng bo'lgan. Bu kabi har xilliklar Samarqand, Toshkent, Farg'onada ham uchraydi.

Mil arabcha so'z bo'lib, bir farsaxning uchdan bir ( $1/3$ ) qismiga teng ekanligi qayd etadi. Mil lotincha – Milia yoki milla ming qadam ma'nosida qo'llangan. Ko'pligi alyol. Qadimgi Rumda 1420 metr, fransuzlarda 1482 m. Eronda esa ko'zi sog'lom kishining ko'z bilan ko'rilishi mumkin bo'lgan uzoqlikka nisbatan ishlatiladi [Matgoziyev, 1977: 78].

Quloch so'zi asarda ko'p uchraydi: Sabohi Istalifdin o'tlanib, sanjid darasining orasi bila o'tib, Xoja Seyoronning yaqinida etganda, bir ulug'iyonkim, yo'g'onligi bilakcha va uzunligi bir quloch bo'lgay edi o'turildi. Bu qirg'izlarda “qulach”, qozoqlarda “qulash”, oltoylarda “qulash”, turklarda “qulach” uyg'urlarda “g'ulach” deb yuritilsa, ozarbayjonlarda “guchag” deb yuritiladi. N. Xanikovning yozishicha, to'liq quloch inson bo'yiga teng bo'lgan. A.K.Borovkov esa, quloch- tirsakdan barmoq uchigacha bo'lgan oraliq ekanligini qayd etadi. N. Hamdamov va X. Komilovlar ham quloch qadimdan predmetlarning uzunligini ifodalashda qo'llanilgan uzunlik o'lchovi ekanligini aytishadi [Hamdamov, 1983:47].

Jarib (Jerib) so'zi yer o'lchovi ma'nosida qo'llangan. V. Xitsning fikricha, so'nggi o'rta asrlarda bir jarib 100 kv kasabaga aniqrog'i, 1592 kvmga teng bo'lgan bir kasaba- 399 sm, yoki ba'zi tarixiy asarlarda 1200 kvmga teng deb berilgan. E.A. Davidovichning yozishicha, jarib tanob bilan parallel qo'llanilgan va O'rta Osiyoda bir jarib, 3600 kv gazga teng bo'lgan. Eronda esa *jarib* 1 gektarni ifodalagan. Forslar, asosan kichik jaribni qo'llaganlar. Kichik *jarib* 960 kvmga dan 1600 kvmgacha bo'lgan sathni ifodalagan. X. Sultonovning “Boburiynoma” asarida *jarib*: eni 60 , bo'yi 80 metrdan iborat maydon deb qayd etilgan [Султонов, 1997:122]. Ko'rinadiki, *jarib* turlicha davrlarda turli o'lchovni ifodalagan. Asarda bu so'z quyidagi matnda uchraydi: va har biriga sakson *jerib* ( yer ) berurlar: mundin qirq mamobni mazru qilib hosili xud bari o'zlari masarruf qilurlar va yaxshilar allarning ulufasiga hisob qilurlar va qalg'on qirq ma'nobdan ortiq eksalar mol agar biz yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, jaribni 1200 kvmga teng desak, unda yuqoridagi keltirilgan sakson jarib 96000 kvmga teng bo'ladi. Bu so'z Eronda yo'l o'lchovi birligi sifatida qo'llanilgan. Bir manzil tuyada bir kunlik yo'l, yani 25-30 kmdan iborat bo'lgan. “Lug'atnoma” da manzil karvon bir kunda yuradigan masofa deb berilgan. Manzillarning suvli va obod joylaridan o'tishi



ularning bosib o'tgan masofalarining har xil bo'lishiga olib kelgan. Ikki manzil oralig'i karvonning kunduzi bosib o'tgan masofasiga teng bo'lgan. “Al- Munjid” da ham bu so'z qo'nadigan ko'nalg'a, hovli, karvon to'xtaydigan joy ma'nosida qo'llangan. P. Hamdamovning yozishicha, manzil noaniq o'lchov birligi bo'lib, ikki joy orasidagi masofani anglatgan. “O'zbek tilining izohli lug'ati” da esa yo'lining bir to'xtash joyidan ikkinchi bir to'xtash joyigacha bo'lgan masofani ifodalashi qayd etilgan. Qadimdan forslardan manzil masofa o'lchovini ifodalab, taxminan ruslarning 50- 60 verstiga teng bo'lgan. Bu so'z “Boburnoma”da ham faqat bir o'rinda qo'llanilgan: Chun Sulton Ahmad mirzo murojaat qildi, ikki-uch manzildin so'ng mijozni etidol natijidin munharif bo'lib, muxriq, isitma tori bo'ldi.

Asarda yilni, faslni, vaqtni ifodalovchi hisob so'zlar alohida o'rin tutadi. Fasl ifodalovchi numerativlardan qish, zimiston, yoz, tobiston, kuz, pashkol, bahor. Fasl so'zi uch oyni ya'ni yilning to'rtidan bir qismi ma'nosini anglatadi. Hindistonda esa fasl to'rt oyni ifodalab, yilning uchdan bir bo'lagini bildiradi. Yana ul viloyatlarda to'rt fasltur. Hindistonda uch fasl bo'lur, to'rt oyi yoz dur, to'rt oyi pashkol, to'rt oy qish. Namoz bilan bog'liq bo'lgan vaqt o'lchov so'zlari ham ko'p ishlatilgan: namozi shom, namozi peshin, namozi digar, bir sut pishimi, ot minguncha fursat, qilich sug'urguncha fursat, tug'chi tug' bog'laguncha fursat. Bobur O'rta Osiyo oy nomlari bilan Hindistonda qo'llanilgan oy nomlarini chog'ishtiradi: chitar, baysok, jid, asor- hamal, hud, savr, javzo. Savan bodun kuvor kotik- saraton, asad, sunbula, mezon. Akhan, pus, moh, pogun- aqrab, qavs, jadiy dalv. Bulardan tashqari hijriy-qamariy yil oylari va hijriy-shamsiy yil oylari ham qo'llanilgan. Masalan muharram, safar, hamal, safr, javzo va boshqalar.

Oyni ifodalovchi numerativlar juda ko'p uchraydi: Bobur O'rta Osiyo oy nomlari bilan Hindistonda qo'llanilgan oy nomlarini chog'ishtiradi: chitar, baysok, jid, asor- hamal, hud, savr, javzo. Savan bodun kuvor kotik- saraton, asad, sunbula, mezon. Akhan, pus, moh, pogun- aqrab, qavs, jadiy dalv. Bulardan tashqari hijriy-qamariy yil oylari va hijriy-shamsiy yil oylari ham qo'llanilgan. Masalan muharram, safar, hamal, safr, javzo va boshqalar. Kunni ifodalovchi numerativlar. Bular shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, odina, char, aytvar, sumvar, mongalvar, budvor, brisspartvor, sukrvor. Hafta so'zi ham asarda ko'p qo'llanilgan: Keshga kelgandin bir - mirzo Samarqandni Shaybonixonga berdi . Bu misolda hafta so'zi son bilan birga kelib, 6- 12 kun oralig'idagi vaqtini ifodalab kelgan.

Soat, minut, sekundni ifodalovchi numerativlar. Bunday numerativlarni quyidagi guruhlarga ajratiladi: aniq vaqtini ifodalovchi numerativlar pos, pahr, pul, soat, daqiqa, gari/gri, qismat va boshqalar orqali ifodalanadi. Hindcha pahr va forscha pos so'zlari bir- biriga sinonim. Lug'atlarda pahr kecha va kunduzning 1/ 4 qismi, yani 3 soatga teng. Agar kechani 12 soat kunduzni 12 soat deb, kecha va kunduzni 4 ga bo'lsak shunda 3 soat kelib chiqadi. Yoki kecha- kunduzning 1/ 8 qismi deb olish ham mumkin. Baribir, natija 3 soatga teng bo'ladi. “Boburnoma”da quyidagi matnda uchraydi: Kechaning uch pahri bo'la yovushub



edikim, xabar kelturdilarkim, yog'iy xabar topqoch, bir- biriga baqmay burilib qocharlar. Bir pahr yovushib edikim, Anvardin o'tlanildi. Pahr so'zi gapda son bilan yoki kecha, kunduz so'laridan biri bilan kelsagina aniq vaqtni ifodalaydi. Pahr vaqt o'lchov birligi sifatida soat qiymatini ifodalab, bugungi kunda ham Hindistonga xalq tilida saqlanib qolgan. Bu so'z pos so'ziga nisbatan ko'proq qo'llanilgan: Kechaning uch posig'acha yo'l kelduk. Navoiy asarlarida esa vaqt ma'nosida pos so'zi qo'llangan. Pahr va pos so'zlarining sinonim ekanligi haqiqatga yaqin. Chunki lug'atlarda ularning ifodalagan vaqt birligi bir xil. Taxminiy vaqtni bildiruvchi numerativlar. “Boburnomada”da namoz bilan bog'liq numerativ birliklar ko'p uchraydi: Namoz shom, namoz digar, namoz, peshin, ikki namoz orasi, digar, peshin, shom, xufton, juma namoz, iydi fitr, namoz shom bila namoz xufton, namoz bomdod, namoz digar bilan namoz shom orasi, fars vaqtidin namoz peshingacha, zavvol vaqti, sunnat vaqti naqora vaqti kabilar. Bulardan Tashqari, choshtgoh, tush vaqti, axshom, sahar, tonglasi, tong boshida, tongdin burun kabilar mavjud. Qadimda o'lchov birliklari oltin, kumush yoki misdan yasalgan va anglatgan qiymati shunga muvofiq holda bir-biridan farq qilgan, yani tangalarning qiymati tangaga ketgan oltin, kumush yoki mis og'irlik darajasi hamda metallining qadri bilan belgilangan. Demak, tanga qanday predmetdan yasalishidan qat'iy nazar usha davr uchun pul birligi bulgan. “Boburnoma”da pul qiymatini ifodalovchi quyidagi numerativlar uchraydi: dinor/dinar, dirham/ diram, flus/fulus, donge, tanga, ashrafiy, yarmoq, shohruhiy kumush, oltun, rotiba, vajh, shuningdek, olmos kabi so'zlar ham qo'llanilgan. Dinor qadimda arablarning pul birligi bo'lib asosan, oltindan. V.M.Berkutovning ma'lumot berishicha, dinor rimliklarning “dinary” kumush tangasining nomidan olingan va lotincha “o'ntalik” ma'nosini anglatgan. Inson Karmlı “Nuqud ul-arabiya” asarida dinor Rumiy tildagi dinoryusdan olingan deyilgan. Bu so'z tarixini fransuzcha dinyaga bog'laydiganlar ham bor. Musulmon olamida esa dinor oltindan yasalgan. O'zbek lug'atlarida dinor “oltin aqcha”, “oltin tanga” deb berilgan. “Boburnoma” ning ruscha nashrida esa bir dinor 7,5 gramm kumushdan iborat deb izohlangan. V asrda 1,25 grammlı, 6 dirhamlik kumushga teng bo'lgan. A.Matg'oziyevning yozishicha, dirham so'zi qadimgi grek tilidan rus, chex, slovak, polyak, ukrain, xind, eron, turkiy tillarga kirib o'zlashgan. U arabcha dirham, forscha diram shaklida qo'llanadi. Arablarning mashhur “Al-munjid” lug'atida dirham yunoncha bo'lib, kumushdan zarb etilgan deyiladida qayd etilgan diram bizningcha E.A.Davidovich qayd etgan 4,8 misqolga teng.

Ashrafiy so'zi ham pul eski birligi bo'lib, chervon qiymatiga teng bo'lgan. Chervon o'n so'mlik (10 so'm) pul qiymatini anglatadi. Alixon chiqib, bir pora ashrafiy peshkash qildi. Ba'zi manbalarda qayd etilishicha ashrafiy Eronning milliy oltin puli bo'lgan. Bu narsa Texronda chop etilgan “Lug'atnoma” da ham qayd etilgan. Bu so'z tarixi haqida Eron tilshunoslari orasida ikki xil fikr yuradi: 1. Ashraf Afg'on Fotahi Isfaxon XII asrda shu tangani zarb ettirgan. Shuning uchun pul uning nomi bilan yuritiladi. 2. Bu pul ashraf oyida zarb etilgan. Ammo



bu ma'lumotlardan qat'iy nazar Eron ashrafiysiy uch xil bo'lgan: 1) bir tuman, yani bir misqol tillo; 2) besh ming tuman, yani yarim misqol tillo; 3) ikki ming tuman, yani to'rt yarim tillo. Boshqa mamlakatlarda ashrafiyning “lira” deb ham nomlagan.

Sonlarni ifodalovchi numerativ so'zlar ham juda ko'p o'rinlarda qo'llanilgan. Ba'zilari, juda yuqori qiymatni ifodalab kelgan. Asarda sonlarni ifodalovchi quyidagi numerativlar qo'llanilgan: Tuman, lak, kurur, karb, nil, padam, song, arb. Tuman so'zi 10 ming qiymatini ifodalagan, ba'zi manbalarda tumanni mo'g'ul tilidan olinganligi qayd etilgan. Qadimda 10 ming askar boshlig'ini ham Amiri tuman deb atashgan. Shuningdek, 10 ming pulni ham tuman deb yuritishgan. Hatto katta to'dani ham tuman deb atashgan. Ba'zi o'rinlarda guruh ma'nosida ham qo'llanilgan. Bu holat tumanning katta qiymat ifodalaganligi sababli, turkiy xalqlarda esa uyezdga, rayonga, jamoaga nisbatan tuman so'zi qo'llanadi. Tuman Eronda 1932- yilga qadar pul birligi sifatida muomalada bo'lgan. Kurur hindcha o'lchov birligi bo'lib katta miqdorni, yani 500000 ni anglatadi. Asarda asosan, pul qiymatini ifodalab kelgan. Eroniy kurur ham 500 ming qiymatini ifodalaydi. Hindlarda kurur 10 millionga teng bo'lgan qiymatga ega. Bu esa 100 lak bo'ladi. Hindlarning 1 kururi Eronning 20 kururiga teng keladi. Shuning uchun hindlar 100 lakni 1 kurur deb atashgan. Asarda ham kurur 500 ming qiymatni ifodalagan. Mutloq ko'plikga nisbatan ham kurur so'zi qo'llanilgan. “Boburnoma”da quyidagi matnda uchraydi: Sarvar sarkori: bir kurur ellik besh lak o'n yetti ming besh yuz olti yarim tanga. Shuni ham ta'kidlash joizki, sanoq sonlarga sinonim sifatida qo'llangan numerativlardan kurur, karb, arb, nil, padam, so'zlari ham bugungi kunda Hindistonda yuqoridagi keltirilgan qiymatni saqlagan holda qo'llanadi. Ayrim numerativ so'zlar sanoq son bilan birgalikda kelib, sanalmishning to'dasini anglatadi. “Boburnoma”da jamlov ma'nosini ifodalovchi so'zlar ko'p. Ular shaxs, hayvon to'dasi, o'simliklarning ko'p yoki kamligini, dushman tomonidan olingan xazina miqdorini anglatadi. Ular quyidagilar: qabza, shuba, kulula, xarvar- xarvar, suruk-suuk, to'da, favsh, tang-tang, qator, tavila- tavila, pera. O'z davrida aniq qiymat ifodalagan numerativlar hududi qo'llanishiga ko'ra bir-biridan miqdori aniqligi va qiymati bilan muayyan tafovutlarga ega bo'lgan, ammo har bir hudud uchun aniq qiymatni ifodalagan. Ba'zi hollarda boshqa hududning o'lchov birligi ikkinchi bir hudud uchun ham qo'l kelgan. Natijada hududiy tarqalish jarayonida qiymat ifodasi o'zgarib borgan. Ularning ayrimlari davrlar sinovida bardosh berib, o'z qiymatini yuqotmagan, ayrimlari esa davrlar o'tishi bilan muayyan semantik o'zgarishga uchragan. Pul qiymatini ifodalovchi numerativlar qadimda faol qo'llanib, hududi jihatdan bir-biriga yaqin qiymatda bo'lgan. Og'irlik o'lchoviga mansub numerativlarning ayrimlari aniq qiymat ifodalagan bo'lsa, ba'zilari taxminiy o'lchov birligi vazifasida qo'llangan. Hindcha numerativlar miqdoran yuqori sonlarni, vaqt ma'nosini, pul qiymatini, og'irlik, uzunlik va masofa o'lchovlarini ifodalagan. Bobur ayrim o'rinlarda Hindistonda qo'llanuvchi



numerativ birliklarni Markaziy Osiyoda qo‘llangan numerativ birliklar bilan solishtirib, ularning aniq qiymatini belgilashga erishgan. Asarda qo‘llangan numerativlarning muayyan guruhi sanoq sonlar bilan kelsagina aniq qiymatga ega bo‘ladi, ayrimlari esa asosan taxminiy miqdorni ifodalashga xoslanagan, ya‘ni hajm, jamlik ifodalovchi numerativlar taxminiy qiymatga egadir.

“Boburnoma”da numerativlar ko‘pincha tasviriylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Masalan, jang tasvirlarida son va miqdor birliklari yordamida voqeaning miqyosi, kuchlar nisbatini aniqlash mumkin bo‘ladi. Iqtisodiy holatlar tasvirida esa pul va og‘irlik o‘lchovlari jamiyatdagi boylik, taqsimot va ijtimoiy tabaqalanishni ko‘rsatadi. Shu jihatdan numerativlar muallifning tarixiy voqelikka bo‘lgan munosabatini ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Asarda qo‘llangan numerativ birliklarning muayyam guruhi o‘sha davrda boshqa turkiy tillarda ham faol ishlatilgan. Bunday birliklarni hududiy va davrlar asosida o‘rganish ularning qiymatini keltirib chiqarishga yordam beradi. O‘z navbatida, kiritilgan aniqliklar mumtoz adabiyotlar bo‘yicha tuziladigan lug‘atlarga ya‘ni dalillar berishi mumkin. Numerativlarning muhim jihatlaridan biri ularning semantik-funksional xususiyatidir. Ular faqat miqdoriy axborotni yetkazish bilangina cheklanmay, balki muallifning voqelikka bo‘lgan munosabatini, bahosini ham ifodalaydi. Masalan, noaniq miqdorni bildiruvchi birliklar orqali muallif voqealarning ko‘lamini kattalashtiradi yoki ta’sirchanlikni oshiradi. Bu holat numerativlarning uslubiy funksiyasini ko‘rsatadi. Madaniy jihatdan qaralganda, “Boburnoma”dagi numerativlar Bobur davri madaniyati, xo‘jalik yuritish usullari, savdo va soliq tizimi haqida muhim ma’lumot beradi. Ular orqali o‘sha davr jamiyatida miqdor, boylik, vaqt va makonga bo‘lgan munosabatni kuzatish mumkin. Shunday qilib, numerativlar tarixiy tafakkurning til orqali ifodalanish shakli sifatida namoyon bo‘ladi. numerativlar davr madaniyati va tafakkurining til orqali ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘lchov birliklarining o‘ziga xosligi, ularning hududiy va tarixiy farqlari Bobur yashagan davrda miqdor tushunchasining qanday qabul qilinganini ko‘rsatadi. Masalan, aniq standartlashmagan birliklarning qo‘llanishi o‘sha davr iqtisodiy amaliyotining xususiyatlarini aks ettiradi.

O‘tkazilgan tahlillar “Boburnoma” asarida keltirilgan miqdor bildiruvchi birliklarning asosiy qismini turkiy- yog‘och, botmon, quloq, qari, ortmoq, tanga, yormoq, qop, teva kabi; forscha- shohruhiy, rotiba, puishtivora, ser, xarvar, sabad, farsax/farsang kabi; arabcha- kuruh, mil, dinor/dinar, dirham, qadam, fulus, donge, misqol, manzil, ashrafiy, shari, man kabi va hindcha- rati, mosha, to‘la, miyonosa, tong, kuruh, karb, arb, qadam kabi o‘lchov birliklari tashkil etishini ko‘rsatdi. Hindcha numerativlar miqdoran yuqori sonlarni, vaqt ma’nosini, pul qiymatini, og‘irlik, uzunlik va masofa o‘lchovlarini ifodalagan. Bobur ayrim o‘rinlarda Hindistonda qo‘llanuvchi numerativ birliklarni Markaziy Osiyoda qo‘llangan numerativ birliklar bilan solishtirib, ularning aniq qiymatini belgilashga erishgan.



### Adabiyotlar:

1. Хамдамов П. Ўзбек тилида нумеративлар. – Тошкент: Фан, 1983.
2. Холманова З. Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи. – Тошкент, 2009.
3. Матгозиев А. XIX аср ўзбек тилининг морфологияси. – Тошкент: Фан, 1977.
4. Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёт. – 1995.
5. Султонов Х. Бобурийнома. – Тошкент: Шарқ, 1997.